

*Gulnoza Muxiddinova*

*gulnozamuxiddinova9@gmail.com*

*Toshkent davlat yuridik universiteti*

*Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-kurs B-potok 1-guruh talabasi*

***Annotatsiya.** Ushbu tadqiqot raqamli transformatsiyaning O'zbekiston Respublikasi fuqarolik huquqi, jumladan, shartnoma munosabatlari, intellektual mulk, shaxsiy ma'lumotlar, iste'molchilar huquqlari, fuqarolik protsessual huquqi kabi asosiy yo'nalishlarga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada, raqamli transformatsiya tushunchasini batafsil ochib berilgan, raqamli transformatsiya va fuqarolik huquqi o'rtasidagi asosiy bog'liqliklarni tahlil etilgan, shu bilan birgalikda raqamli transformatsiyaning fuqarolik protsessual huquqiga, xususan, elektron dalillar tushunchasi va ularning jinoyat-protsessual qonunchilikda mustahkamlanishi masalasiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Elektron dalillarning sud amaliyotida qo'llanilishi fuqarolar huquqlarini himoya qilish samaradorligini oshirishi bilan birga, yangi huquqiy muammolarni ham keltirib chiqarishi ehtimoli tahlil etilgan.*

***Kalit so'zlar:** Legal tech, sun'iy intellekt, dalil, vasiyatnoma, shartnoma, fuqarolik huquqi, raqamli texnologiya, istemolchi, modernizatsiya, elektron, sud, mobil aloqa, blockchain, raqamlashtirish.*

## **KIRISH**

Fuqarolik huquqi O'zbekiston Respublikasi huquq tizimining asosiy sohalaridan biri hisoblanib, mamlakatimizda iqtisodiy, ijtimoiy hamda mulkiy munosabatlarini tartibga solish va mustahkamlashga qaratilgan huquqiy normalar yig'indisidan iborat. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik huquqi tomonidan tartibga solinadigan munosabatlar doirasi nihoyatda katta. Shular jumlasiga yuridik shaxslar, bitimlar, vakillik va ishonchnoma, muddatlar, mulk huquqi,

ashyoviy huquqlar, majburiyat huquqi hamda shartnoma huquqi kiradi. Demak, fuqarolik huquqini raqamli transformatsiyaga bog'lashimizdan avval biz aynan shu so'zning mohiyatini tushunib olishimiz zarur. Raqamli transformatsiya -turli olimlar, tadqiqotchilar va soha mutaxassislari tomonidan tavsiflangan. Shu jumladan Devid L. Rojers larning "The Digital Transformation Playbook: Rethink Your Business for the Digital Age" nomli kitobida Rojers raqamli transformatsiyani yangi biznes jarayonlarini yaratish yoki mavjud biznes jarayonlarini, madaniyatini va mijozlar tajribasini o'zgartirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayoni sifatida tavsiflaydi. Shu jumladan xorijiy olim George Westerman tomonidan raqamli transformatsiyaga quyidagicha ta'rif berilgan: "Raqamli transformatsiya- Korxonalar samaradorligini yoki imkoniyatlarini tubdan yaxshilash uchun texnologiyadan foydalanish. Demak, raqamli transformatsiya bu shunchaki yangi texnologiyalarni qo'llashdan ko'ra, biznesni tubdan qayta ko'rib chiqishni va raqamli dunyoda muvaffaqiyatli ishlashga moslashishni nazarda tutadi.

## **USULLAR**

Ushbu tadqiqot Legal Tech'ning Fuqarolik huquqiga ta'sirini o'rganish maqsadida miqdoriy va sifatiy usullarni qo'llagan holda olib borildi. Quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanildi:

**Adabiyotlar tahlili:** Legal Tech sohasidagi ilmiy maqolalar, kitoblar va boshqa manbalarga asoslangan holda mavzuga oid nazariy asoslar o'rganildi. Google Scholar, JSTOR va HeinOnline kabi ma'lumotlar bazalaridan foydalanildi. Tahlil jarayonida "legal tech", "artificial intelligence in law", "legal innovation" kabi kalit so'zlar orqali qidiruv amalga oshirildi va so'nggi 10 yil ichida chop etilgan manbalar ustuvorlik bilan tanlab olindi.

**Ma'lumotlarni to'plash usullari:** Legal techning fuqarolik huquqiga ta'siri doirasini o'rganish uchun Lex.uz huquqiy axborot tizimidan foydalanildi.

**Qiyosiy tahlil:** O'zbekistondagi yuridik xizmatlar sohasida raqamli texnologiyalarning fuqarolik huquqiga ta'siri xorijiy davlatlarniki bilan taqqoslandi.

Raqamli transformatsiya tashkilotlarga quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

- Samaradorlikni oshirish: Ish jarayonlarini avtomatlashtirish va optimallashtirish orqali samaradorlikni oshirish.
- Xarajatlarni kamaytirish: Avtomatlashtirish va optimallashtirish orqali xarajatlarni kamaytirish.
- Mijozlarning qoniqishini oshirish: Mijozlarga yaxshiroq xizmat ko`rsatish va ularning ehtiyojlarini qondirish.
- Raqobatbardoshlikni oshirish: Yangicha xizmatlar va biznes modellarni ishlab chiqish orqali raqobatbardoshlikni oshirish.
- Innovativlikni rivojlantirish: Yangi texnologiyalarni qo`llash va eksperiment o`tkazish imkoniyatini yaratish.

O`zbekiston Respublikasi prezidentining PF-6079-son “Raqamli O`zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to`g`risida Raqamli infratuzilmani rivojlantirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi belgilab berildi.<sup>1</sup> O`ptik tolali aloqa liniyalari, xalqaro kommutatsiya markazlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish orqali mintaqaviy va xalqaro telekommunikatsiya tarmoqlarining, O`zbekiston Respublikasining chegaradosh Markaziy Osiyo davlatlari bilan tranzit aloqalarining o`tkazuvchanlik qobiliyatini kengaytirib borish; taqdim etilayotgan xizmatlar hajmini oshirish, rezervlash, tizimlarning ishonchliligini ta`minlash, shuningdek, aholi punktlari va ijtimoiy obyektlarni keng polosali xizmatlardan foydalanish imkoniyati bilan ta`minlash uchun ma`lumotlar jo`natish tarmog`ini kengaytirish; mobil va yo`ldosh aloqa operatorlarining investitsion faolligini rag`batlantirishning qo`shimcha mexanizmlarini yaratish; mobil aloqa tarmog`ini 4G va 5G texnologiyasi bo`yicha rivojlantirish, Toshkent shahri, Qoraqalpogiston Respublikasi va barcha viloyatlar markazlarini beshinchi avlod aloqa tarmog`i bilan bosqichma-bosqich qamrab olish; barcha aholi punktlari va ijtimoiy obyektlarni optik va mobil keng xizmatlardan foydalanish

---

<sup>1</sup> PF-6079-son “Raqamli O`zbekiston — 2030” strategiyasi

tarmoqlari bilan qamrab olish; avtomagistral va temir yo'llari, turistik obyektlarni mobil aloqa tarmoqlari bilan qoplashni ta'minlash, web jahon axborot tarmog'iga ulanish tariflarini takomillashtirish va optimallashtirish; geografik joylashuvidan qat'iy nazar, fuqarolarning o'sib borayotgan axborotga ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun keng palosali simsiz va mobil texnologiyalarni yanada rivojlantirish;

Iste'molchilarga televizion signalni uzatish, yer usti televizion eshittirish, kabel televideniyesi, IP-televideniye, ma'lumotlar uzatish tarmoqlari, mobil aloqa, Internet texnologiyalaridan foydalangan holda teleradioeshittirish, televizion va radio xizmatlarining barcha turlarini to'liq qamrab olgan holda raqamli eshittirishni takomillashtirish; "bulutli" hisoblash asosida ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash markazlarini rivojlantirish, foydalanuvchi talablariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining axborot resurslariga uzluksiz ulanishni ta'minlash; bozorning erkin rivojlanishi imkoniyatini saqlab, telekommunikatsiya sohasini rivojlantirish uchun sharoitlarni yaxshilash, biznes yuritish va telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish uchun ma'muriy to'siqlarni kamaytirish; elektron hukumat doirasida elektron davlat xizmatlaridan foydalanish uchun barcha davlat organlari, ularning tarkibiy va hududiy bo'linmalarini idoralararo ma'lumotlar uzatish tarmog'iga ulagan holda ushbu tarmoqni rivojlantirish; mamlakatimiz hududida davlat organlari, jismoniy va yuridik shaxslar uchun axborotni saqlash, qayta ishlash, himoya qilish va elektron davlat xizmatlarining foydalanuvchanligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish; davlat organlari faoliyatini elektronlashtirish va elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish doirasida "xizmat sifatida dasturiy ta'minot", "xizmat sifatida platforma", "xizmat sifatida infratuzilma" texnologiyalarini keng targ'ib qilish, shahar infratuzilmasini boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali transport logistikasi, shahar infratuzilmasi, shahar muxitining sifati, shahar rivojlanishini boshqarish samaradorligi, jamoat, biznes va yashash turar joylari bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun "aqlli" va "xavfsiz" shahar loyihalarini keng ko'lamda amalga oshirish; keng palosali ulanishni

rivojlantirishning texnologik asosi iste'molchilarga asosiy va qo'shimcha xizmatlarni, shu jumladan texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish xizmatlarini, aholining hayotini qo'llab-quvvatlashda elektron tizimlarni joriy etishning bir qismi sifatida yagona infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga bosqichma-bosqich kirishni ta'minlash uchun yagona tuzilma yordamida multiservis tarmoqlarini rivojlantirish; mavjud aloqa (simsiz va optik), simli va simsiz aloqa texnologiyalari va tizimlari, shuningdek, yangi joylashuv axborot va navigatsiya tizimlarining samaradorligini oshirish yo'llarini o'z ichiga olgan aloqa va navigatsiya texnologiyalarini rivojlantirish; aloqa operatorlari o'rtasida raqobatni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish belgilab beriladi.

### **NATIJALAR**

Xo'sh aynan shu sun'iy intellektlarning fuqarolik huquqiga qanday ta'siri bor? Hamma narsa elektronlashsa bu yaxshimi yoki yomon? Raqamli transformatsiya yuridik xizmatlar ko'rsatish va fuqarolik huquqini amalga oshirish usullariga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Asosiy o'zgarishlarni quyidagicha ko'rishimiz mumkin:

1. Elektron hujjat aylanishi ancha osonlashdi, shartnomalarni arizalarni va boshqa hujjatlarni elektron rasmiylashtirish va almashish imkoniyatiga ega bo'linadi. Bu jarayonlarni tezlashtiradi va qog'oz safini kamaytiradi

2. Masofaviy yuridik xizmatlar amalga oshirish imkoniyatlari paydo bo'ldi ya'ni, advokatlar va mijozlar o'rtasida video aloqalar, konsultatsiyalar qilish. Bu vaqtni ham, geografik to'siqlarni ham bartaraf etishda imkoniyat taqdim etadi

3. Sun'iy intellektlar orqali hujjatlarni izlash, topish va tahlil qilish. Bu qonun hujjatlari bilan electron tanishishga imkon beradi

4. Raqamli transformatsiya fuqarolik huquqining bir qator sohalariga ta'sir ko'rsatmoqda:

- Intellektual mulk huquqi
- Shartnomaviy munosabatlar
- Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish

- Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish
- Elektron tijorat

Xorijiy davlatlarda keng qo'llanilib kelinayotgan "smart-shartnomalar" (aqlli shartnoma) atamasi nisbatan yaqinda vujudga kelgan, ammo uning huquqiy tartibga solinishi, malakalanishi va amaliy qo'llanilishi katta ilmiy va amaliy qiziqish uyg'otmoqda. Davlat tomonidan "aqlli shartnomalar" bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish va "aqlli shartnoma" ning barcha tomonlariga tegishli huquq va majburiyatlarni berish dolzarb bo'lib bormoqda. Shuningdek, bugungi kunda ushbu shartnomalar umumiy qabul qilingan shartnomaning bir turi yoki boshqa huquqiy mexanizm ekanligini ham tushunib olishimiz lozim.

**Shartnoma huquqi.** O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 353-moddasi<sup>2</sup>ga binoan ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deyiladi. 354-moddada shartnoma tuzish erkinligi<sup>3</sup> belgilab qo'yilgan. Yani, Fuqarolar va yuridik shaxslar shartnoma tuzishda erkindirlar. Shartnoma tuzishga majbur qilishga yo'l qo'yilmaydi, shartnoma tuzish burchi ushbu Kodeksda, boshqa qonunda yoki olingan majburiyatda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Taraflar qonunchilikda nazarda tutilmagan shartnomani ham tuzishlari mumkin. Taraflar turli shartnomalarning elementlarini o'z ichiga oladigan shartnoma (aralash shartnoma) tuzishlari mumkin. Aralash shartnoma bo'yicha taraflarning munosabatlariga, agar taraflarning kelishuvidan yoki aralash shartnomaning mohiyatidan boshqacha tartib anglashilmasa, elementlari aralash shartnomada b'lgan shartnomalar to'g'risidagi qoidalar qo'llaniladi. Shartnomaning shartlari taraflarning xohishi bilan belgilanadi, tegishli shartning mazmuni qonunchilikda k'rsatib qo'yilgan hollar bundan mustasno.

Shartnomaning sharti taraflar kelishuvida boshqacha tartib belgilab qo'yilmaganligi tufayli qo'llaniladigan norma (dispozitiv norma)da nazarda tutilgan hollarda taraflar o'zaro kelishib, uning qo'llanishini bekor qilishlari yoki unda nazarda tutilganidan boshqacha shartni belgilashlari mumkin. Bunday

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 353-moddasi

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 354-moddasi

kelishuv bo'lmaganda shartnomaning sharti dispozitiv norma bilan belgilanadi. Endi asosiy masalaga o'tsak, har kim shartnoma tuzish erkinligiga ega bo'lsa-yu, lekin qanday tuzishni, kimga murojaat qilishni bilmasa bu ancha murakkab jarayondak tuyuladi. Biror maqsad yuzasidan shartnoma tuzmoqchi bo'lsa, misol uchun ijara shartnomasi yoki qarz shartnomasi nima qilish kerak, qay tartibda kamroq xarajatlar bilan tuzsa bo'ladi degan savol qiynaydi. O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi 670-I-sonli qonun<sup>4</sup> orqali shartnomalarni tuzish va bajarish monitoring yuritilmoqda. Belarus Respublikasining qonun hujjatlarida birinchi marta "smart-shartnomalar" (aqlli shartnoma) atamasiga batafsil tushuntirish berilgan. Belarus Respublikasi Fuqarolik kodeksining 390-moddasi<sup>5</sup>ga binoan, ikki yoki undan ortiq shaxsning fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini belgilash, o'zgartirish yoki tugatish to'g'risidagi kelishuvi shartnoma sifatida tan olinadi. Belarus Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-dekabrda 8-son «Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish to'g'risida» gi dekreti<sup>6</sup>da MDH davlatlari hududida birinchi marta «aqlli shartnoma» tushunchasini kiritdi. 8-dekretning 1-ilovasi 9-bandiga muvofiq, aqlli shartnoma - bu tranzaksiyalar blokklarining ro'yxatida yoki boshqa taqsimlangan axborot tizimlarida faoliyat yuritish uchun mo'ljallangan (blokcheyn), bitimlarni avtomatlashtirilgan tarzda tuzish, ijro etish va (yoki) boshqa qonuniy ahamiyatga ega harakatlarning bajarilishiga mo'ljallangan dasturiy koddir. Shu o'rinda aynan sun'iy intellekt shartnoma tuzishda bizga katta yordam ko'rsatishi mumkin agar O'zbekistonda ham shunday sayt yaratilsa. Raqamli texnologiya sharofati bilan hujjatlar bilan ishlash bizda ancha tezlashgan. Misol tariqasida aytsak, sud hujjatlaridan namuna olmoqchi bo'lsak, public.sud.uz bu sayt orqali biz turli xildagi arizalarni (ajrashish, da'vo xati, sudga murojlat qilish...) hech qanday mablag'nsarflamasdan, yuristlarga murojaat

---

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi 670-I-sonli qonun

<sup>5</sup> Belarus Respublikasi Fuqarolik kodeksining 390-moddasi

<sup>6</sup> Belarus Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-dekabrda 8-son «Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish to'g'risida» gi dekreti

qilmasdan olish imkoniyatiga egamiz va bu bizga talaygina qulayliklarni yaratib berdi. Endi turli xildagi shartnomalarni yaratuvchi sayt bo`lsa va bundan fuqarolar foydalansa nafaqat foydalanuvchilarning o`ziga balki davlatga ham foyda keltiradi, ortiqcha qog`ozbozlikdan qutilamiz.

**Vasiyatnoma.** Elektron vasiyatnomaning samaradorligi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, albatta, fuqarolar o`rtasidagi huquqiy munosabatlarni o`zgartirishga ta`sir qilmoqda. Shu bilan birga, AQSh turli xil elektron vasiyatnomalarni yaratishi bilan raqamlashtirishga katta ta`sir ko`rsatadi. AQSh da vasiyatnomaning 3 ko`rinishi mavjud<sup>7</sup>, oflayn elektron vasiyatnomalar, onlayn elektron vasiyatnomalar, malakali saqlovchi elektron vasiyatnomalar. Aynan elektron vasiyatnomalar O`zbekistonda ham bo`lganida qanday qulayliklarga ega bo`lar edik? Birinchidan, vasiyatnoma tayyorlash osonroq va tezroq amalga oshiriladi. Ikkinchidan, vasiyatnomalar bazasi shakillantiriladi va agar shartnoma shikastlansa yoki yo`qolsa uni yana qayta yuklab olish imkoniga ega bo`lamiz. Elektron vasiyatnomalarni tayyorlash arzon bo`lishi, tasdiqlanishi va meros qoldiruvchi vafotidan keyin mavjud bo`lishini ta`minlaydi.

Raqamli transformatsiya iste`molchilar huquqlariga ham ta`sir o`tkazmay qolgani yo`q. Suni`iy intellekt aynan istimolchilarga quyidagi afzalliklarni olib keladi:

- Iste`molchilar mahsulot va xizmatlar haqida ko'proq ma`lumotga ega bo`lishadi
- Onlayn sharhlar va reytinglar orqali boshqa iste`molchilar tajribasi bilan tanishish imkoniyatiga ega bo`linadi.
- Ijtimoiy tarmoqlar va turli xildagi maxsus platformalar orqali shikoyatlarni tezkor yuborish imkoniyati mavjud bo`lishi
- Turli onlayn platformalarda narxlarni solishtirish orqali eng yaxshi taklifni topish imkoniyati
- Xavfsiz to`lov tizimlari

---

<sup>7</sup> <https://www.law.cornell.edu/wex/lawsuit>



➤ Firibgarlik holatlari aniqlanganda mablag`larni qaytarish mexanizmlari.

➤ Bank, sug`urta va boshqa xizmatlardan onlayn foydalanish imkoniyati.

➤ Bu vaqt va resurslarni tejaydi.

Raqamli transformatsiya iste`molchilar huquqlarini himoya qilish sohasiga katta o`zgarishlar olib kirmoqda. Bu jarayonda yangi imkoniyatlar paydo bo`lishi bilan birga, yangi muammolar ham vujudga kelmoqda. Shuning uchun qonunchilik va amaliyotni doimiy ravishda yangilab borish, hamda iste`molchilarning raqamli savodxonligini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Fuqarolik protsessual huquqiga ham nazar tashlaydigan bo`lsak, aynan fuqarolik protsessual kodeksining 8-bobi dalillarga bag`ishlanadi. FPKning 71-moddasi<sup>8</sup>ga ko`ra, taraflarning talablari va e`tirozlarini asoslaydigan holatlarning mavjudligini yoki mavjud emasligini sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo`ladigan har qanday faktik ma`lumot va ishni to`g`ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo`lgan boshqa holatlar fuqarolik ishi bo`yicha dalillardir. Bu ma`lumotlar quyidagi vositalar, ya`ni: taraflarning va uchinchi shaxslarning hamda ular qonuniy vakillarining tushuntirishlari, guvohlarning ko`rsatuvlari, yozma va ashyoviy dalillar, ekspertlarning xulosalari, mutaxassislarning maslahatlari (tushuntirishlari) bilan aniqlanadi.

### **MUHOKAMA**

Xo`sh, raqamli transformatsiya dalillarga qanday ta`sir o`tkazishi mumkin? Elektron dalillar tushunchasi O`zbekistonga kirib kelish arafasida. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo`mitasi tomonidan "O`zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o`zgartish va qo`shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasi<sup>9</sup> muhokamasiga bag`ishlangan Ishchi guruhi yig`ilishi bo`lib o`tdi. Qonun loyihasiga ko`ra, elektron dalillar jumlasiga elektron ma`lumotlar Internet jahon

---

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi 71-moddasi

<sup>9</sup> "O`zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o`zgartish va qo`shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasi

axborot tarmog`i manbalarida saqlanayotgan ma`lumotlar, media va ovozli xabarlar, ma`lumotlar, axborot bazalari va boshqalar kirishi nazarda tutilmoqda. Qonun loyihasi bilan elektron dalillardan foydalanish asoslari va tartibi belgilanmoqda. Bundan tashqari, qonun loyihasida elektron dalillarni aniqlash, to`plash, taqdim qilish, tekshirish, baho berish, qayd etish, saqlash tartiblari va bu jarayonda protses ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari nazarda tutilmoqda.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida "O`zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish to`g`risida"<sup>10</sup>gi qonun loyihasi joylashtirildi. Hujjat bilan 1994 yil 22 sentyabrida tasdiqlangan № 2013-XII sonli O`zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga quyidagi o`zgartirishlar va qo`shimchalar kiritilishi mumkinligi aytiladi

81-moddaning (Dalillarning turlari) ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon qilinadi: «Bu ma`lumotlar guvohning, jabrlanuvchining, gumon qiluvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining ko`rsatuvlari, ekspertning xulosasi, ashyoviy va raqamli dalillar, ovozli yozuvlar, videoyozuvlar, kinotasvir va fotosuratlardan iborat materiallar, tergov va sud harakatlarining bayonnomalari va boshqa hujjatlar bilan aniqlanadi».

**87-moddaning** (Dalillar to`plash) birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon qilinadi: «Dalillar tergov va sud harakatlarini yuritish: gumon qiluvchini, ayblanuvchini, sudlanuvchini, guvohni, jabrlanuvchini, ekspertni so`roq qilish; yuzlashtirish; tanib olish uchun ko`rsatish; ko`rsatuvni hodisa ro`y bergan joyda tekshirish; olib qo`yish; tintuv; ko`zdan kechirish; shuningdek, kompyuter tarmoqlarida masofadan erkin ulanish, guvohlantirish; murdani eksperiment qilish; eksperiment o`tkazish; ekspertiza tadqiqotlarini o`tkazish uchun namunalar olish; ekspertiza va taftish tayinlash; taqdim etilgan ashyolar va hujjatlarni qabul qilish; telefonlar va boshqa so`zlashuv qurilmalari orqali olib borilgan so`zlashuvlarni eshitish, shuningdek tezkor-qidiruv tadbirlarini o`tkazish yo`li bilan to`planadi».

---

<sup>10</sup>"O`zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish to`g`risida"gi qonun

Elektron dalil tushunchasi qonunimizga kirib keladigan bo'lsa, ko'plab afzalliklar kelib chiqadi. Hozirgi kunda ko'pchilik fuqarolar tomonidan turli elektron aloqa vositalari, messenjerlar orqali jinoyatlar sodil etilayotgani hech kimga sir emas. Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda jinoyatlar va qurbonlar soni ortib borayotganini qayd etdi. Jinoyatchilar odamlarning bank hisobidan pul o'g'irlashning yangi usullaridan foydalanmoqdalar. Xususan, hisoblar va elektron hamyonlardan pul mablag'larini o'g'irlash texnik-dasturiy vositalardan foydalangan holda bank yoki boshqa to'lov kartalaridan noqonuniy nusxa ko'chirish hamda qalbakilashtirish yo'li bilan amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, huquqni qo'llash amaliyotida elektron ma'lumotlarning dalil sifatida tan olinishi va ish materiallariga kiritilishi bilan bog'liq muammolar yuzaga kelayotgani jinoyatlarni ochishda qiyinchiliklar tug'dirayotgani ta'kidlandi. Shu jumladan, fuqarolarning kartasidan pul yechib ketilishini, firibgarlikni, terrorizmni moliyalashtirishni kamaytirish uchun elektron dalil tushunchasini qabul qilish kerak deb o'ylayman. Chunki bu nafaqat fuqarolarning xavfsizligini balki sodir etilgan jinoyatlarni tezda ochilishiga ham ko'mak beradi. Shuningdek, mamlakatning huquq ustuvorligi fuqarolik odil sudlovida va jinoiy odil sudlov tarkibiy indikatorlaridagi mavqei yaxshilanishiga, shaxs huquq va erkinliklarining samarali himoya qilinishiga xizmat qiladi.

Shu kabi hujjatlar elektron tarziga o'tgani yaxshi, lekin buning ayrim salbiy jihatlari mavjud. Yuqorida qayd etilganidek, yuridik xizmatlar sohasida raqamli transformatsiyaning fuqarolik huquqiga ta'siri quyidagi salbiy oqibatlarni keltirib chiqazishi mumkin. Birinchidan, fuqarolarda shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi vujudga kelishi mumkin. Ya'ni, Iste'molchilar ma'lumotlarining yig'ilishi va ulardan foydalanish bilan bog'liq xavflar yoki kiberhujumlar va ma'lumotlar o'g'irlanishi xavfi. Ikkinchidan, agar yaxshi aloqa vositalari mavjud bo'lmasa, raqamli kontentga egalik huquqi va uni qayta sotish imkoniyati bilan bog'liq murakkabliklar hamda asturiy ta'minot va raqamli xizmatlarning sifatini baholash qiyinligi. Uchinchidan, onlayn savdodagi firibgarliklar (Soxta do'konlar va mahsulotlarning ko'payishi) soni oshadi. To'rtinchidan, foydalanish shartlari (Ko'p sahifali va murakkab til bilan yozilgan shartnomalar Iste'molchilar

ko`pincha shartlarni o`qimasdan rozilik berishlari) yoshi kattaroq insonlarga qiyinchilik tug`dirishi mumkin. Beshinchidan, raqamli tenglik muammosiga duch kelishimiz mumkin, bu shuni anglatadiki, barcha iste`molchilarning raqamli xizmatlarga teng kirish imkoniyatiga ega emas va katta yoshdagi va raqamli ko`nikmalari past bo`lgan iste`molchilar uchun qiyinchiliklar paydo bo`ladi. Lekin shu kabi muammolarni hal qilish uchun bir qancha choralar ko`rilishi zarur. Qonunchilik takomillashib, raqamli muhitda iste`molchi huquqlarini himoya qilishga qaratilgan yangi qonunlar qabul qilish, mavjud qonunchilikni yangi texnologiyalarga moslashtirish, raqamli xavfsizlik va onlayn xaridlar bo`yicha ta`lim dasturlarini joriy etish, iste`molchilarni o`z huquqlari haqida xabardor qilish, xalqaro hamkorliklarni kuchaytirish, davlatlar o`rtasida iste`molchi huquqlarini himoya qilish bo`yicha kelishuvlar tuzish, xalqaro standartlarni ishlab chiqish bu muammoni hal qilishi mumkin. Vaholanki, Barcha mijozlarning teng imkoniyatlarga ega emasligi: Keksa yoki raqamli ko`nikmalari past bo`lgan mijozlar zamonaviy yuridik xizmatlardan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.

➤ Yuridik firmalar o`rtasidagi raqobat: Kichik yuridik firmalar qimmat raqamli texnologiyalarni joriy etishda yirik raqiblaridan ortda qolishi mumkin. Ayrim yuridik xizmatlarning avtomatlashtirish tufayli yo`q bo`lib ketishi: Oddiy huquqiy hujjatlarni tayyorlash kabi xizmatlar to`liq avtomatlashtirilishi natijasida ayrim yuristlar ish o`rinlarini yo`qotishlari mumkin.

➤ Yangi ko`nikmalarni o`zlashtirish zarurati: Yuristlar zamonaviy texnologiyalarni o`zlashtirish uchun doimiy ravishda o`qib-o`rganishlari kerak bo`ladi. Shu bilan birgalikda, qonunchilikni tez-tez o`zgartirish zarurati paydo bo`lishi mumkin. Chunki raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi qonunchilikni doimiy yangilab turishni talab qiladi, bu esa huquqiy tizimni murakkablashtiradi.

➤ Yangi turdagi nizolar paydo bo`lishi: Raqamli aktivlar, kriptovalyutalar, sun`iy intellekt kabi yangi sohalar bilan bog`liq nizolar paydo bo`lmoqda, bu esa sud tizimiga qo`shimcha yuk bo`lmoqda.

Raqamli transformatsiya yuridik xizmatlar sohasiga va fuqarolik huquqiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ijobiy o'zgarishlar bilan bir qatorda, yuqorida sanab o'tilgan salbiy oqibatlarni ham hisobga olish muhim. Bu muammolarni hal qilish uchun qonunchilikni takomillashtirish, yuristlarni zamonaviy texnologiyalarga o'qitish va axloqiy standartlarni ishlab chiqish zarur. Shu bilan birga, raqamli transformatsiyaning afzalliklaridan foydalangan holda, an'anaviy yuridik xizmatlarning eng yaxshi jihatlari, xususan, shaxsiy yondashuv va professional etikani saqlab qolishga e'tibor qaratish lozim.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, raqamli transformatsiya fuqarolik huquqini modernizatsiya qilishni, yangi qonunlar va tartiblar ishlab chiqishni talab etmoqda. Bu o'zgarishlar fuqarolarning huquqiy xizmatlarga kirishish imkoniyatini oshirish va huquqiy tizimni samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi, ammo shu bilan birga yangi huquqiy va axloqiy muammolarni ham keltirib chiqaradi. Yuridik xizmatlar sohasida raqamli transformatsiyaning fuqarolik huquqiga ta'siri bizga bir qancha afzalliklarni keltirib chiqaradi. Ushbu o'zgarishlar natijasida yuridik xizmatlar samaraliroq, tezroq va arzonroq bo'lishi, fuqarolarning huquqiy himoyasi kuchayishi kutilmoqda.

№	Muammo	Tavsiya va takliflar (Nazariy)	Tavsiya va takliflar (Amaliy)
1.	Moliyaviy to'siqlar	Legal Tech'ga sarmoya kiritishning uzoq muddatli foydasini tushuntirish	Bosqichma-bosqich joriy etish rejasini ishlab chiqish
2.	Texnik bilim va ko'nikmalar yetishmasligi	Legal tech sohasi bo'yicha ta'lim sifatini oshirish	Muntazam treninglar va vebinarlar tashkil etish
3.	Ma'lumotlar xavfsizligi bilan bog'liq xavotirlar	Xavfsizlik siyosati va protokollarini ishlab chiqish	Yuqori darajadagi shifrlash usullarini qo'llash; xodimlarni ma'lumotlar xavfsizligi bo'yicha o'qitish

4.	Huquqiy tartibga solish masalalari	Qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish	Qonun loyihasini ishlab chiqish
5.	Aholini huquqiy savodxonligini oshirish	Darsliklarni yangilash, aholiga tushuntirishlar berish	Legal Tech'ning aniq foydasini ko'rsatuvchi loyihalarni amalga oshirish

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Fuqarolik huquqi darslik V.R.Topvoldiyev 2022
2. Zokirov I.B Fuqarolik huquqi. Darslik. – T: TDYuI, 2006
3. Zokirov I.b., Oqyulov O., va boshqalar Shartnoma huquqi. – T., TDYuI, 2006
4. Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. Darslik. – T: TDYuI, 2009
5. Иванова Е.В. Гражданское право. Учебник. М. Книжный мир. 2011.
6. Rahmonqulov X.R. Fuqarolik huquqining predmeti, metodi va tamoyillari. – T., TDYuI, 2003
7. Rahmonqulov H.R., Topildiyev V.R. Fuqarolik huquqi. – T., Cho'lon. 2011
8. Rahmonqulov H.R. va boshqalar/ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. I jild/ - T.: "Vektor-Press" 2010
9. Гражданский Кодекс Республики Беларусь (ГК РБ, ГКРБ, Гражданский Кодекс Беларуси) 218 -3 от 7.12.1998 г. (.doc) [https://kodeksy-by.com/grazhdanskij\\_kodeks\\_rb.htm](https://kodeksy-by.com/grazhdanskij_kodeks_rb.htm)

**NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: - t.: O'zbekiston, 2023
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. – T: Yuridik adabiyotlar publish, 2023
3. O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonuni (2015)

4. O`zbekiston Respublikasining "Sun`iy intellekt to'g'risida"gi Qonuni (2021)
5. Gulyamov, S.S. (2023). O'zbekistonda LegalTech: bugungi holat va istiqbollari. Huquq va innovatsiyalar, 1, 15-25.
6. Surden, H. (2020). Artificial Intelligence and Law: An Overview. Georgia State University Law Review, 35(4), 1305-1337.
7. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining O`zbekiston respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi Farmoyishi // Qonun hujjatlari ma`lumotlari milliy bazasi, 06.04.2019-y., 08/19/5464/2891-son
8. O`zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2020-yil 19-dekabrdaagi “Sudlar tomonidan fuqarolik ishlari bo`yicha dalillar va isbotlashga oid qonun normalarini qo`llash amaliyoti to`g`risida”gi 35-sonli qarori.
9. O`zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish haqida”gi qonun loyihasi
10. O`zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish to`g`risida”gi qonun
11. O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi
12. Belarus Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-dekabrdaagi 8-son «Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish to`g`risida» gi dekreti
13. O`zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdaagi “ Xo`jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to`g`risida”gi 670-I-sonli qonun
14. Yuridik xizmat ko`rsatish markazlari faoliyatini yanada kengaytirish bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori
15. O`zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldaagi “Normativ-huquqiy hujjatlar to`g`risida”gi O`RQ-682-sonli Qonun // Qonunchilik ma`lumotlari milliy bazasi, 20.04.2021-y.,03/21/682/0354-son.
16. Тихомиров ЮЮАю Публичное право. – М., 1995

**FOYDALANILGAN SAYTLAR**

1. <https://www.law.cornell.edu/wex/lawsuit>
2. <https://www.lex.uz/>
3. <https://lex.uz/acts/-5482934>
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-iqtisodiyotda-inson-huquqlarini-ta-minlash-masalalari>
5. [https://www.oriens.uz/media/journalarticles/120\\_Akramov\\_Akmaljon\\_Anvarjon\\_ogli\\_807-818.pdf](https://www.oriens.uz/media/journalarticles/120_Akramov_Akmaljon_Anvarjon_ogli_807-818.pdf)
6. <https://library-tsul.uz/>
7. <https://tsue.uz/en/news/tdiuda-dtai-2024-raqamli-transformatsiya-va-suniy-intellekt-muammolar-tendensiyalar-va-innovatsiyalar-mavzusida-i-xalqaro-ilmiy-amaliy-konferensiya-bolib-otdi>
8. <https://kun.uz/uz/news/2020/07/06/raqamli-iqtisodiyot-rivojlanish-trendlari-va-xususiyatlari>
9. <https://inacademy.uz/index.php/EJLFAS/article/download/19892/13487/18239>
10. [https://www.academia.edu/111031521/Kiberxavfsizlik\\_raqamli\\_huquq\\_va\\_raqamli\\_gigiyena\\_kiberjinoyatchilikka\\_qarshi\\_muqobil\\_yechim](https://www.academia.edu/111031521/Kiberxavfsizlik_raqamli_huquq_va_raqamli_gigiyena_kiberjinoyatchilikka_qarshi_muqobil_yechim)